O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

2026 - yil 27 - apreldagi 278934 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Oybek MFY, Abdulla Qahhor ko'chasi 10-uy da joylashgan O`z chegara o`lchamidan chiqmagan holda mavjud noturar bino inshootlarini buzib o‘rnida ko‘p xonadonli turar uy-joylar qurilishini loyihalashtirish” ishchi loyihasi
Buyurtmachi: QORAKUL CITY MCHJ
Bosh loyihachi: "EXSPRESS PROJEKT " MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: “QORAKUL CITY” MChJ.
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 116717

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 08-noyabrdagi 225920576-sonli ruxsatnomasi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 11-noyabrdagi 1727-1727237-246071-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. “Toshkent viloyati Suv ta’minoti” AJ ning 24.11.2025-yilda 2574-sonli texnik sharti.

1.4. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent hududiy filialining 24.09.2025-yildagi 27238107883-sonli texnik shartlar.

1.5. Buyurtmachi tomonidan 2026-yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.6. 02.04.2026-yildagi reestr raqami 226040084-sonli “GEODELTA” MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari haqidagi texnik hisobot.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Zangiota tumani filialining 11.10.2025-yildagi 11:04:42:01:02:01:01-sonli noturar joy toifasidagi ko‘chmas mulk ob’ektining kadastr pasporti.\

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Zangiota tumani hokimligining 06.11.2025-yildagi 01/1-1475-sonli xati.
2.4. “TOShKENTBOSHPLAN LITI” Bosh loyiha instituti DMning 29.10.2025-yildagi SH MRICH-1199-sonli xati.
2.5. “AMUR TEMUR” (Oybek) MFY jamoatchilik kengashi a’zolarining 21.10.2025-yildagi navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi bayoni.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Tashqi havo harorati -14S.
Normativ shamol bosimi - W= 0,38 kPa.
Normativ qor qatlami vazni - S = 0,50 kPa.
Hududning seysmikligi, KMK 2.01.03-19 ga 1-o‘zgartirishga muvofiq, Eshonguzar aholi punkti uchun 100 yilda 1 marta takrorlanish ehtimoli bilan 7 ball va 1000 yilda 1 marta takrorlanish ehtimoli bilan 8 ball deb baholanadi.
Gruntlarning seysmik xossalari bo‘yicha kategoriyasi – II (ikkinchi). II-kategoriya gruntlari uchun maydonning hisobiy seysmikligi KMK 2.01.03-19 1.1-jadvalining 4-bandiga muvofiq 8 (sakkiz) ball deb qabul qilinadi.
Gruntlarning mavsumiy muzlash chuqurligi maksimal 0,70 m ni tashkil etadi.
Muhandislik-geologik xulosa ma’lumotlariga ko‘ra:
IGE-1 – qumoq va supes gruntlar, lesssimon, jigarrang rangli, makrog‘ovakli, ayrim joylarda bo‘lakli, qattiqdan plastik holatgacha, qo‘shimcha yuklama ta’sirida cho‘kuvchan, yer osti suvlari sathidan yuqorida joylashgan. Qatlam qalinligi: 0,6–1,6 m.
IGE-2 – qumoq va supes gruntlar, lesssimon, g‘ovakli, yarim qattiqdan suyuq holatgacha, yer osti suvlari sathidan pastda va kapillyar zona hududida joylashgan.
Qatlam qalinligi: 8,0–18,9 m. Gruntlar cho‘kuvchan emas, korroziya ta’siriga nisbatan zararsizdan sust agressivgacha.
Yer osti suvlari yer yuzasidan 1,5–2,4 m chuqurlikda aniqlangan. Hisobiy maksimal sath kuzatilgan chuqurlikdan 0,5 m yuqorida, ya’ni yer yuzasidan 1,0–1,9 m chuqurlikda bo‘lishi mumkin.

3.2. Bosh reja.

Obyekt Toshkent viloyat, Zangiota tumani, Oybek MFY, Abdulla Qahhor ko’chasi, 10-uy manzilida joylashgan.
Bosh rejada quyidagi bino va inshootlar loyihalanishi ko’zda tutilgan:

- 12-qavatli turar joy binosi Blok-A;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-B;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-V;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-G;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-D;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-Ye;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-J;
- 12-qavatli turar joy binosi Blok-I;
- Soyabonlar ochiq ayvon;
- Turar joy binosida yashovchilar uchun avtoturargoh;

- Bolalar o’yin maydoni;
- Transformator podstansiya;
- Chiqindi konteyneri;
- Yong’inga qarshi himoya qalqoni va qum uchun quti;
- Nazorat o’tkazish punkti (KPP) va boshqalar.

3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

12-qavatli turar joy binosi Blok-A – to’rtburchak shakldagi yerto’lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo’lgan bino tarx o’q o’lchamlari 27,7x16,0metrni tashkil etadi.
Yerto’la qavatda lift zal, yo’lak, texnik xonalar va boshqalar loyihalangan.
1-qavatda zina maydoni, lift zallar, tamburlar, savdo maydonlar va nogironlar uchun sanitar tuguni loyihalangan.
Yerto’la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 77ta: 1-xonali xonadon – 44ta; 2-xonali xonadon – 33ta.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkich (A):

Umumiy maydon (yerto’lasiz) – 5164,2m2;
Qurilish maydon – 569,1m2;
Qurilish hajmi – 23882,0m3;
Yerto’la qavat – 366,1m2;
Savdo maydon 1 qavat – 380,1m2;
Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 3888,5m2.

12-qavatli turar joy binosi Blok-B – to’rtburchak shakldagi yerto’lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo’lgan bino tarx o’q o’lchamlari 27,7x16,4metrni tashkil etadi.
Yerto’la qavatda lift zal, yo’lak, texnik xonalar va yerto’la xonalari loyihalangan.
1-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.
Yerto’la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 84ta: 1-xonali xonadon – 48ta; 2-xonali xonadon – 36ta.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkich (B):

Umumiy maydon (yerto’lasiz) – 5365,1m2;
Qurilish maydon – 550,2m2;
Qurilish hajmi – 25027,0m3;
Yerto’la qavat – 381,4m2;
Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4552,8m2.

12-qavatli turar joy binosi Blok-V – to’rtburchak shakldagi yerto’lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo’lgan bino tarx o’q o’lchamlari 27,7x16,4metrni tashkil etadi.
Yerto’la qavatda lift zal, yo’lak, texnik xonalar va yerto’la xonalari loyihalangan.
1-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.
Yerto’la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 84ta: 1-xonali xonadon – 48ta; 2-xonali xonadon – 36ta.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkich (V):

Umumiy maydon (yerto’lasiz) – 5365,1m2;
Qurilish maydon – 550,2m2;

Qurilish hajmi – 25027,0m3;

Yerto'la qavat – 381,4m2;

Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4552,8m2.

12-qavatli turar joy binosi Blok-G – to'rtburchak shakldagi yerto'lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo'lgan bino tarx o'q o'lchamlari 27,7x16,4metrni tashkil etadi.

Yerto'la qavatda lift zal, yo'lak, texnik xonalar va yerto'la xonalari loyihalangan.
1-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.
Yerto'la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 84ta: 1-xonali xonadon – 48ta; 2-xonali xonadon – 36ta.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkich (G):

Umumiy maydon (yerto'lasiz) – 5365,1m2;

Qurilish maydon – 550,2m2;

Qurilish hajmi – 25027,0m3;

Yerto'la qavat – 381,4m2;

Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4552,8m2.

12-qavatli turar joy binosi Blok-D – to'rtburchak shakldagi yerto'lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo'lgan bino tarx o'q o'lchamlari 27,7x16,4metrni tashkil etadi.
Yerto'la qavatda lift zal, yo'lak, texnik xonalar va yerto'la xonalari loyihalangan.
1-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.
Yerto'la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 71ta: 1-xonali xonadon – 25ta; 2-xonali xonadon – 35ta; 3-xonali xonadon – 11ta.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkich (D):

Umumiy maydon (yerto'lasiz) – 5149,5m2;

Qurilish maydon – 441,2m2;

Qurilish hajmi – 23716,0m3;

Yerto'la qavat – 282,9m2;

Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4330,6m2.

12-qavatli turar joy binosi Blok-Ye – to'rtburchak shakldagi yerto'lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo'lgan bino tarx o'q o'lchamlari 28,9x18,8metrni tashkil etadi. 1-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.
Yerto'la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 72ta: 1-xonali xonadon – 24ta; 2-xonali xonadon – 36ta; 3-xonali xonadon – 12ta.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkich (Ye):

Umumiy maydon (yerto'lasiz) – 5149,5m2;

Qurilish maydon – 542,7m2;

Qurilish hajmi – 25206,0m3;

Yerto'la qavat – 381,2m2;

Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4064,69m2.

12-qavatli turar joy binosi Blok-J – to’rtburchak shakldagi yerto’lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo’lgan bino tarx o’q o’lchamlari 27,7x16,4metrni tashkil etadi.1-qavatida bolalar bog’chasi va uning yordamchi xonalari joylashgan. 2-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.

Yerto’la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 77ta: 1-xonali xonadon – 44ta; 2-xonali xonadon – 33ta.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkich (J):

Umumiy maydon (yerto’lasiz) – 5341,0m2;

Qurilish maydon – 542,7m2;

Qurilish hajmi – 25206,0m3;

Yerto’la qavat – 381,38m2;

Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4181,10m2;

12-qavatli turar joy binosi Blok-I – to’rtburchak shakldagi yerto’lali va 12-qavatli chordoq qavati ham bo’lgan bino tarx o’q o’lchamlari 27,7x16,4metrni tashkil etadi. 1-12 qavatlarda xonadonlar joylashgan.

Yerto’la qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,31m, 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha h=3,96m, 2-12-qavatli balandligi poldan orayopmagacha h=3,06 m. Chordoq qavat balandligi poldan orayopmagacha h=2,7m.

Umumiy xonadon – 84ta: 1-xonali xonadon – 48ta; 2-xonali xonadon – 36ta.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkich (I):

Umumiy maydon (yerto’lasiz) – 5230.27m2;

Qurilish maydon – 533m2;

Qurilish hajmi – 25206,0m3;

Yerto’la qavat – 381,2m2;

Xonadonlar uchun umumiy maydon (balkon bilan) – 4213.68m2;

Tashqi pardozlash:

Poypesh – 50 mm XPS izolyatsiyasi bilan qoplangan, keramogranit plita metall karkas asosida;

Devor – G‘isht devor p=1800kg/m3 qalinligi 250mm. Izolyatsiya tosh jun ϒ=100- kg/m3 70 mm qalinlikdagi, qalinligi 80 mm bo'lgan havo bo'shlig'i (ventfasad), qoplamali fasad g‘ishti qalinligi 120mm;

Kazirok – profnastil qoplama;

Tom – profnastil qoplama;

Ichki pardozlash:

Devor – yaxshilangan suvoq, suv emulsiya va rang, namlik mavjud xonalarda keramik plitka;

Shift – suv emulsiya va rang,

Pol – keramik plitka va laminat;

Vitraj – PVX profil;

Rom –PVX profil;

Xonadonlarga kirish eshigi- Metall yong’inga chidamli;

Eshik – “MDF” yog’och;

Framuga – alyumin profil;

KPP Nazorat o’tkazish punkti – to’rtburchak shakldagi bino tarx o’q o’lchamlari 3,9x2,8metrni tashkil etadi. Binoda qo’riqlash xonasi loyihalangan. Bino poldan shiftgacha balandlik h=2,550metr.

Texnik iqtisodiy ko’rsatkich:

Qurilish maydon – 14,6m2;

Qurilish hajmi – 64,97m3;
Tashqi pardozlash:
Poypesh – keramogranit plitka;
Devor – yaxshilangan suvoq, fasad rang;
Tom qoplama – profnastil;
Ichki pardozlash:
Devor – yaxshilangan suvoq, suv emulsiya va rang;
Shift – osma shift, gipsokarton va suv emulsiya, rang;
Pol – taxta qoplama;
Rom – PVX plastik;
Eshik – PVX plastik;
Yong'inga qarshi himoya qalqoni, qum uchun quti, 2,4metrli metall to'siq va besedka loyiha yechimlari taqdim etilgan.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Konstruktiv sxema KMK 2.01.03-19 3.1-jadval 1.2.2-band "b" kichik bandiga muvofiq – bog'lovchi yoki ramali-bog'lovchi tizim bo'lib, devorlar 250 mm qalinlikdagi g'isht bilan to'ldirilgan va SG-1 to'rlar bilan armaturalangan.

Loyihalanayotgan bino uchun asos sifatida zichlashtirilgan gruntlar va diametri 800 mm, uzunligi 16,0 m bo'lgan monolit temirbeton qoziqlar (svay) qabul qilingan. Ular AIII va AI sinf armatura karkaslari bilan mustahkamlangan. Qoziqli poydevor maydoni hisobga ko'ra taxminan 1,45×1,80 m qadam bilan joylashtiriladi.

Barcha qoziqlar qalinligi 1200 mm bo'lgan monolit temirbeton yaxlit poydevor plitasi bilan bog'langan.

Monolit temirbeton plitaning pastki belgisi – 4,85.

Yerto'la devorlari –monolit temirbeton.

Qattiqlik diafragmalari – monolit temirbeton.

Ustunlar va rigellar – monolit temirbeton.

Orayopma va yopma plitalari – qalinligi 160 mm bo'lgan monolit temirbeton.

Devorlar (karkas to'ldiruvchisi) – qalinligi 250 mm bo'lgan g'ishtdan, karkas ishida qatnashmaydi, gorizontal armatura to'rlari SG-1 bilan mustahkamlangan.

Ichki to'siq devorlar – qalinligi 120 mm bo'lgan g'ishtdan.

Zina katagi – monolit temirbeton.

Lift shaxtasi – qalinligi 200 mm bo'lgan monolit temirbeton.

Tom yopmasi – konvert shaklidagi qiya, chordoqli, metall konstruksiyalar ustiga o'rnatilgan profnastildan iborat.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Konstruksiyalarning holatlariga ko'ra, binoning olovbardoshlik darajasi– II, konstruktiv yong'in xavfi sinfi – S0, funksional yong'in xavfi sinfi – F 1.3 (turar-joy qismi).

Yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlar nazarda tutilgan:

Yong'inga qarshi oraliq masofalar, evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos; binoning tashqi devorlarini yonmaydigan materiallardan ishlov berilishi (issiqlik izolyatsiyasi mineralvata (bazalt), ustki qatlami dekorativ gisht); tomga chiqish ichki zina katagi orqali, yerto'la qavatidan chiqish yo'li bevosita tashqariga bo'lib, yuqori qavatlardan evakuatsiya uchun N1 turdagi tutun qoplamaydigan zina katak; har bir xonadonda ochiq (oynalanmagan) lodjiyalarga avariyaviy chiqishlar; xar bir qavatda me'yoriy soniga ega yong'in o'chirish kranlari bilan ichki yong'inga qarshi suv ta'minoti; yerto'la qavatining

alohida xonada suv bosimini ko‘tarish maqsadida yong‘inga qarshi nasoslar, har bir qavat yo‘laklarida va yerto‘la qavatida yong‘in vaqtida tutun chiqarish tizimi; yong‘in vaqtida lift shaxtasining yuqori qismiga alohida kanal orqali tashqi havo berish tizimi; liftlardan biri yong‘in vaqtida yong‘in-qutqaruvchilarni tashishga mo‘ljallangan; noturar va xonadonlarning barcha xonalarida avtomatik yong‘in signalizatsiyasi; yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi; evakuatsiya yo‘llarida chiqish yo‘nalishini ko‘rsatuvchi maxsus ko‘rsatkichlar va boshqalar.

3.6. Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- Devor izolyatsiya – 70mm qalinlikdagi mineral plita;
- Tom izolyatsiya – 150mm qalinlikdagi mineral plita;

– tomda 160 dona quyosh panellari va 15 kVtli 8 dona invertor o‘rnatilgan ;

– FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va b.

– yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va b.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha ichki muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshrig‘iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasi (Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 16-yanvardagi 242325346-sonli xulosa).

- O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat Ekologik ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filialining 2025-yil 20-noyabrdagi 01-02/11-11414-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **232 255 198 161** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **7 922 372 480** so'mga oshirilib,

240 177 570 641 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **200 112 838 001** so'm

Asbob-uskunalar: **14 331 421 500** so'm

QQS: **25 733 311 140** so'm

Obyekt qiymatining ko’payishi ish hajmlarini oshishi, qurilish materiallari narxlarini, ish turlari va normalarini qayta ko’rib chiqish natijasida shakillantirildi.

Chet el uskunalari, mebel va inventarlarning narxi ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmagan.

6.2. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha

izohlarisiz taqdim etilgan.

6.3. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Ob’ektning tashqi elektr tarmoqlari buyurtmachining xatiga ko‘ra ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilmagan.

6.4. Yakuniy xarajatlar buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, nazorat o‘lchovlari natijalariga ko‘ra, amalda bajarilgan ishlar hajmiga qarab belgilanadi.

6.5. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Ob’ektning tashqi elektr tarmoqlari loyiha xujjatlari ishlab chiqilishi va ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilishi shart.

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Oybek MFY, Abdulla Qahhor ko'chasi 10-uy da joylashgan O`z chegara o`lchamidan chiqmagan holda mavjud noturar bino inshootlarini buzib o‘rnida ko‘p xonadonli turar uy-joylar qurilishini loyihalashtirish” ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Musayev Rustam Talatovich, Kosherbaev Muratbek Abatovich, Usmanov Kayrat Sharipbayevich, Do‘smurzayev Sohibjon Zakirovich, Axmedov Asadbek Otabek O‘g‘li, Tashpulatov Dilshat Xusanovich, Abdullayev Otabek Nasrullayevich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna

Bosh ekspert **ABDURAXMANOVA DILFUZA BAXROMOVNA**